

ISPAN TILI KOMPARATI FRAZELOGIZMLARIDA OLAMNING LISSONIY MANZARASI

O‘z.D.J.T.U Ispan tili amaliy fanlar kafedrasida dotsent v.b

Dushayeva U.Yu

Annotatsiya: *Oxirgi yillardagi tadqiqotlar va ilmiy maqolalarda olam manzarasi, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi kabi tushunchalar haqida nazariy va amaliy fikrlarni o‘qish mumkin. Chunki olam manzarasi juda ko‘plab – bu subyektning atrof-olam, real yoki xayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuidir. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo‘lgan lisoniy olam to‘g‘risidagi dastlabki bilimlar aynan tilda turg‘un shakllar ko‘rinishida saqlanib qolgan.*

Kalit so‘zlar: *kognitiv-konseptual, lisoniy, milliy, obraz, komparativ, mentalitet.*

Ilmiy adabiyotlarda dunyo obrazi va olam modeli terminlari ham uchraydi, biroq, ular kam tarqalgan. Olam manzarasi termini birinchi bor fizika fanida G.Gers tomonidan qo‘llanilgan. Taniqli olim ushbu tushunchani tashqi obyektlarning ichki obrazlari yig‘indisi hamda ular ushbu obrazlarning xatti-harakatlari to‘g‘risidagi mantiqiy mulohazalarni shakllantirishga xizmat qiladi, deya ta’kidlaydi.¹

Filolog olim D.Baxranovanning ta’kidlashicha, olam manzarasining muhim jihati, uning ma’naviy-mazmuniy markazi nimadan iborat, bu manzara nimaning atrofida qurilmoqda, degan savollarga javob topishdan iborat. Olam manzarasini to‘laqonli o‘rganishda dunyo olimlari uni kategoriyalarga bo‘lib o‘rganishni taklif qiladilar, bular: kognitiv-konseptual, lisoniy, ilmiy, falsafiy, madaniy, diniy, folklor, mifologik va h.k. Masalan, olamning ilmiy manzarasi insondan mustaqil bo‘lgan obyektlar atrofida quriladi; uning yadrosi – umumbashariy jarayon-voqelikdir. Yoki olamning diniy manzarasining asosiy mavzusi – foniy va boqiy dunyo, insonga xos va ilohiy sohaga oid masalalar nisbatidan iborat.²

¹ Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Filol.fan.dok. ...diss. –Toshkent: 2021. – B. 56.

² O‘sha manba. – B. 58.

Demak, olamning ilmiy manzarasi, bu – turli fanlarga xos bilimlar tizimi; bu, olamning umumlashtirilgan obrazi, unda tabiat, jamiyat va inson haqidagi tasavvurlar ilmiy-nazariy olingan xulosalar natijasida mujassamdir; bu – turli tabiiy fanlar yutuqlari natijasida shakllanadigan tabiat haqidagi ayni tasavvurlarning turli ko‘rinishga ega tizimidir.

Ba’zi tilshunoslar, jumladan, I.R.Kazakov olamning lisoniy manzarasiga ta’rif berar ekan, asosiy e’tiborni olamning lisoniy manzarasi bilan olamning milliy manzarasi orasidagi o‘xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlar borligiga ishora qiladi. Uning fikricha, lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasi va olamning milliy manzarasi tushunchalari orasidagi chegarani, albatta, bilish kerak. Olamning milliy manzarasi lisoniy manzaraning yuzaga kelishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi.³

Shu o‘rinda tilshunos olim Z.Sabitovanning olam lisoniy manzarasiga bergan ta’rifini ham keltirib o‘tish o‘rinli. Unga ko‘ra, “Borliqni idrok etishning tilda aks etgan, millatning ko‘p asrlik tajribalari orqali shakllangan, insonning voqelikka munosabat tarzini belgilovchi, zamonda o‘zgaruvchan, olamning ilmiy manzarasiga nisbatan sodda milliy o‘ziga xos shaklidir”.⁴

Olamning ilmiy manzarasi borliq haqidagi olingan, o‘rganilgan umumiy bilimlarning yig‘indisi hisoblanadi. Olamning ilmiy manzarasi biror sohaga qiziqish va shu qiziqish natijasida muayyan fan, sohaga doir barcha elementlarni jamlashdir. Olamning lisoniy manzarasiga zamonaviy o‘zbek tilshunosligida berilgan yana shunday ta’riflar ham kuzatiladi: “Olamni idrok etishning muayyan til jamoasi ongida tarixan shakllangan, uning tilida barqarorlashgan va ayni shu jamoa uchun xos bo‘lgan odatiy hamda majburiy usullari majmui hisoblanadi. Olamni idrok etish va konseptualashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usullar yig‘indisidir”.⁵ Yu.N.Karaulov fikriga ko‘ra, “Olamning lisoniy manzarasi mazkur tilning yaxlit holda olingan butun konseptual mazmunidir”.⁶

³ Kazakov I.R. Olam lisoniy manzarasiga lingvistik ta’rif. / Models and methods in modern science international scientific-online conference- International scientific-online conference. 2021. – B. 89.

⁴ Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 53.

⁵ Худойберганава Д. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Т.: Fan, 2013. – В. 33.

⁶ Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1996. – С. 264.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, olamning lisoniy manzarasi til sohiblarining butun olam haqidagi tasavvurlari, qarashlari, tafakkurining natijasi hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasi haqida, aytish joizki, uni turli xil tushunish va qo‘llash, bu tadqiqotchining qaysi tadqiqot obyekti bilan ishlayotganiga bog‘liq. Tadqiqot obyekti o‘zgargan sari olamning manzarasi ham o‘zgarib boraveradi. Masalan, R.X.Shirinova fikriga ko‘ra, “Har bir xalq dunyoni o‘zgacha ko‘radi va uning dunyoqarashi ham bir-biridan batamom farq qiladi. Shunday ekan, olamning milliy manzarasi – bu faqat bitta mentalitetga xos manzaradir, shuning uchun ham bu tushuncha «olamning milliy manzarasi» deb nomlanadi”.⁷

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, olam manzarasida milliy-madaniy manzaraning ahamiyati katta. Milliy-madaniy manzara xalqning azaliy odatlari, qadriyatlari orqali vujudga keladi. Bu manzara olamning lisoniy manzarasini shakllantiruvchi omil hisoblanadi.

Biz esa mazkur tadqiqotimizda olamning lisoniy manzarasida komparativ frazeologik birliklar qo‘llanishining funksional semantik strukturasi e‘tiborni qaratdik. Ma’lumki, har qanday tilning mazmun plani strukturasi juda ham o‘ziga xos hisoblanadi. Uning o‘ziga xos xarakteri konkret tilda nafaqat u yoki bu “nouniversal” hodisalarning mavjudligi bilan, balki til universalialarini⁸ ishlatishdagi farqlarning mavjudligi bilan ham namoyon bo‘ladi. Har bir til alohida “bizning idrokimizda o‘rab turgan olamni o‘zicha aks ettiruvchi va mustahkamlab qo‘yuvchi”⁹ takrorlanmas tizimni o‘zida namoyon qiladi.

Ayniqsa, turli tillarda so‘zlashuvchi kishilarning obrazli fikrlashlarining milliy o‘ziga xosligi shubhasizdir. U yoki boshqa tilda obrazlar tizimini yaratishga ta’sir qiladigan ijtimoiy sharoitlarni va ma’naviy moyilliklarni tadqiq qilish sotsiolingvistikaning vazifalaridan hisoblanadi. Komparativ birliklarning sotsiolingvistik bog‘liqligi yana shu bilan asoslanadiki, ularda ishlatiladigan komparativlar tilda ma’lum konnotatsiyalarni qo‘lga kiritib, ular madaniy tasavvurlarni va an’analarni, til

⁷ Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Filol.fan.dokt ...diss. – T.: 2007. –B. 16.

⁸ Гак В.Г. К проблеме соотношения языка и действительности. ВЯ, URSS. 2007. – 640 с.

⁹ Бархударов Л.С. Двенадцать названий и двенадцать вещей. «Русский язык за рубежом». 2009, – №4. – С 79.

jamoasining hayoti va turmushining tarixiy o'ziga xos xususiyatlarini, til sohibining ruhiy kechinmasining milliy xususiyatlarini aks ettiradilar.

Haqiqatan ham, tadqiq qilinayotgan til birliklari uzoq tarixiy taraqqiyot, xalqning ko'p asrlik tajribasi natijasida ishlab chiqilgan va ularda ishlatiladigan obrazlar an'anaga ko'ra avloddan avlodga uzatiladi. Ma'lum bir til sohiblari birlik sifatida ishlatadigan yaxshi ko'rgan predmetlarning va o'rab turgan sharoit hodisalarining tanlovini ayrim hollarda xalq ruhiy tarzining milliy o'ziga xos xususiyatlari¹⁰, ushbu til jamoasi a'zolarining o'ziga xos ruhiy ta'sirchanligidan boshqa narsa bilan tushuntirilishi mumkin emas. Nima uchun, masalan, ispan til sohibiga yaxshi ma'lum bo'lgan hayvonot va o'simlik dunyosi orasida zerikayotgan kishini xarakterlash uchun ustritsa (yesa bo'ladigan dengiz mollyuskasi): *me aburri como una ostra*,¹¹ va nimaga aynan ajo (sarimsoqpiyoz) xarakterning jiddiylilik jihatining ramziy ishorasi bo'lib xizmat qiladi?

T.Salvador bu haqida shunday deb yozadi: «*Lo que ya no esta muy claro es porque se mete a las ostras en el asunto... La vida de las ostras, pegadas a las rocas en el fondo del mar, no es precisamente un dechado de actividad; pero que nosotros sepamos, nunca se han quejado. Seguramente viene por la similitud del bostezo a boca abierta, con las valvas cefalopeas en la misma situacion*».

Adabiy va madaniy tasavvurlarni hamda jamiyat uchun xarakterli bo'lgan an'analarni aks ettiruvchi so'zning semantik assotsiatsiyalarini, unda qandaydir narsalarni va boshqa tildan tashqari omillarning ishlatilishi tajribasining hukmronligini ko'plab mualliflar qayd qiladilar.¹² Misol uchun, X.Kasares, aniq ma'nodagi so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanilishi haqida so'z yuritib, ispan tilining obrazli tizimida *lince* (silovsin) va *basilisco* (bir qarashi barcha jonzodni o'ldiradigan afsonaviy maxluq, ajdaho) obrazlarini o'z ichiga olgan ko'p sonli metaforalar mavjudligini qayd qiladi. Holbuki, deb yozadi muallif, silovsin – uning nomidan foydalanadigan, ko'pchilik

¹⁰ Гинзбург Р.С. Смысловая структура слова. ИЯШ, 1957, – №5. – С. 91.

¹¹ T.Salvador bu haqida shunday deb yozadi: «*Lo que ya no esta muy claro es porque se mete a las ostras en el asunto... La vida de las ostras, pegadas a las rocas en el fondo del mar, no es precisamente un dechado de actividad; pero que nosotros sepamos, nunca se han quejado. Seguramente viene por la similitud del bostezo a boca abierta, con las valvas cefalopeas en la misma situacion*». *Qarang*: T.Salvador. Diccionario de la real academia española. T. I. Barcelona, Real Academia Española, 2011. –p. 96.

¹² Апресян Ю.Д. Современная лексическая семантика. I. Вопросы семантического описания. РЯШ, 1995.

kishilarga ma'lum bo'lmagan hayvon, bir qarashi barcha jonzodni o'ldiradigan afsonaviy maxluq, ajdaho esa tabiatda umuman mavjud bo'lmagan. Ayrim hollarni batafsil tadqiq qilish hind-yevropa folkloriga borib taqaladigan va asosan "Zarbulmasal" asari orqali tarqalgan ko'p asrli an'analarning ta'sirini aniqlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Baxronova D.K. Olam manzarasining milliy-madaniy va lingvokognitiv kategoriyalanishi. Filol.fan.dok. ...diss. – Toshkent: 2021. – B. 56.
2. Kazakov I.R. Olam lisoniy manzarasiga lingvistik ta'rif. / Models and methods in modern science international scientific-online conference- International scientific-online conference. 2021. – B. 89.
3. Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 53.
4. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. – B. 33.
5. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1996. – С. 264
6. Shirinova R.X. Olam milliy manzarasining badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Filol.fan.dokt ...diss. – T.: 2007. – B. 16.
7. Гак В.Г. К проблеме соотношения языка и действительности. ВЯ, URSS. 2007. – 640 с.
8. Бархударов Л.С. Двенадцать названий и двенадцать вещей. «Русский язык за рубежом». 2009, – №4. – С 79
9. Гинзбург Р.С. Смысловая структура слова. ИЯШ, 1957, – №5. – С. 91.
10. T.Salvador. Diccionario de la real academia española. T. I. Barcelona, Real Academia Española, 2011. –p. 96.
11. Апресян Ю.Д. Современная лексическая семантика. I. Вопросы семантического описания. РЯНШ, 1995